

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

**“NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR TO'G'RISIDA”GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2012-yil 1-noyabrda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2012-yil 5-dekabrda ma'qullangan

**LexUZ sharhi**

Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi O'RQ-682-sonli “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi 160-II-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, № 1-2, 8-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda) o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi).

**2-modda.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

**3-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**LexUZ sharhi**

Ushbu Qonun “Xalq so'zi” gazetasining 2012-yil 25-dekabrda 250 (5670)-sonida e'lon qilingan.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2012-yil 24-dekabr,  
O'RQ-342-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

**Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida**

(yangi tahriri)

**1-bob. Umumiy qoidalar**

**1-modda. Ushbu Qonunning asosiy vazifalari**

Ushbu Qonunning asosiy vazifalari normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini, o'zaro nisbatini aniqlashdan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash tartibiga va ularning mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilashdan, shuningdek ularning ijrosi tashkil etilishini ta'minlashdan iborat.

**2-modda. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining turlari va o'zaro nisbati, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash tartibiga hamda ularning mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablar va ularning ijrosi tashkil etilishini ta'minlash Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham belgilanadi.

**3-modda. Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi**

Normativ-huquqiy hujjat ushbu Qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

#### **4-modda. Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar (bundan buyon matnda organlar deb yuritiladi) hisoblanadi.

### **2-bob. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va o'zaro nisbati**

#### **5-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari**

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#);

O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

*(5-moddaning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

#### **6-modda. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari**

Normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonun osti hujjatlaridir.

*(6-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)*

#### **7-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligi**

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va qonunlarining ustuvorligi so'zsiz tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) oliy yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas.

[LexUZ sharhi](#)

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-bobi ("Konstitutsiya va qonunning ustunligi").*

#### **8-modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari**

O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinadi.

[LexUZ sharhi](#)

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi Qonuni.*

O'zbekiston Respublikasining qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi mumkin.

Kodekslar O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tasdiqlanadi.

#### **9-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

#### [LexUZ sharhi](#)

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunining 7-moddasi va O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunining 7-moddasi.*

### **10-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar va qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

*(10-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)*

#### [LexUZ sharhi](#)

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasi.*

### **11-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

#### [LexUZ sharhi](#)

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunining 36-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-martdagi 242-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti".*

### **12-modda. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari**

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar o'z vakolati doirasida buyruqlar hamda qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Buyruqlar vazirlar tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilish yakka tartibda amalga oshiriladigan idoralar rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

Qarorlar davlat qo'mitalari tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilishni mazkur idoraning kollegial organi amalga oshiradigan idoralar tomonidan qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki idoralar bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan qo'shma qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning tarkibiy bo'linmalari hamda hududiy organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli emas.

#### [LexUZ sharhi](#)

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 9-oktabrdagi 469-sonli "Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar me'yoriy hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2000-yil 19-maydagi 197-sonli "Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning me'yoriy hujjatlarini qabul qilish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari va "Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalari" (ro'yxat raqami 2565, 28.02.2014-y.).*

### **13-modda. Vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki idoralar tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan huquqiy vorislik**

Vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqi berilgan idora qayta tashkil etilgan taqdirda, huquqiy vorisga o‘z vakolati doirasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqi bilan birga ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to‘xtatib turish va tugatish vakolatlari ham o‘tadi, ushbu moddaning **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tugatilgan yoxud u tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqini huquqiy vorisiga bermasdan qayta tashkil etilgan taqdirda, ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to‘xtatib turish va tugatish vakolatlari yuqori turuvchi yoki boshqa vakolatli organga o‘tadi.

Vazirlikning, davlat qo‘mitasining yoki idoraning nomi o‘zgartirilgan taqdirda, uning ilgari nomi ko‘rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarning o‘zgartirilgan nomga oid qismiga o‘zgartirish yoki qo‘shimcha kiritilishi lozim. Bunday o‘zgartirishlar yoxud qo‘shimchalar kiritilguniga qadar ilgari nomi ko‘rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishi nomi o‘zgartirilgan vazirlikka, davlat qo‘mitasiga yoki idoraga to‘liq hajmda tatbiq etiladi.

Vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora maqomining o‘zgartirilishi ular tomonidan ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar amal qilishining tugatilishiga olib kelmaydi.

#### **LexUZ sharhi**

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 9-oktabrdagi 469-son qarori bilan tasdiqlangan “Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar me‘yoriy hujjatlarini huquqiy ekspertizadan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi nizamning 19-bandi.*

### **14-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolati doirasida qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari O‘zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi** va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati yuqori turuvchi organlarining qarorlari asosida va ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

#### **LexUZ sharhi**

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi.*

### **15-modda. Normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlanadigan nizomlar, qoidalar, yo‘riqnomalar va boshqa hujjatlar**

Normativ-huquqiy hujjatlar bilan ushbu hujjatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan nizomlar, qoidalar, yo‘riqnomalar va boshqa hujjatlar tasdiqlanishi mumkin.

### **16-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarning o‘zaro nisbati**

Turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo‘yicha o‘zaro nisbati O‘zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasiga**, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatiga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjat o‘ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lishi shart.

Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovut bo‘lgan taqdirda yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat qo‘llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovut bo‘lgan taqdirda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi, ushbu moddaning **beshinch** qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno.

Agar normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning, davlat qo‘mitasining yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo‘lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo‘ladi.

### 3-bob. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash

#### 17-modda. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish

Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi (ishlab chiquvchi) organlar ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish yoki qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashning joriy (bir yilgacha bo'lgan muddatga) va istiqbolga (bir yildan ortiq muddatga) mo'ljallangan rejalarini (dasturlarini) ishlab chiqishi hamda tasdiqlashi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish tartibi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi (ishlab chiquvchi) organlar tomonidan belgilanadi.

#### LexUZ sharhi

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 5-avgustdagi 227-son qarori bilan tasdiqlangan "Qonunlar loyihalarini ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish bo'yicha dasturlarini tayyorlash va qabul qilish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringi tartibi to'g'risida"gi nizom, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 17-oktabrdagi 345-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qonun loyihalariga doir faoliyatining namunaviy reglamenti"ning 2-bobi ("Organlarning qonun loyihalariga doir faoliyatini rejalashtirish").*

#### 18-modda. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash tartibi

Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash:

loyihani tayyorlash to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqish va uni tayyorlash haqida qaror qabul qilishni;

loyiha tayyorlashni tashkiliy-texnikaviy va moliyaviy jihatdan ta'minlashni;

zarur materiallar va axborot to'plashni;

loyihaning konsepsiyasi bayon qilingan tushuntirish xatini ishlab chiqishni;

loyihani tuzishni;

huquqiy va boshqa zarur ekspertiza o'tkazishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritishning xususiyatlari "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilanadi.

#### 19-modda. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashni tashkil etish

Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash uchun loyihani ishlab chiqayotgan tashkilot (bundan buyon matnda ishlab chiquvchi deb yuritiladi) tomonidan ishchi guruh (komissiya) tuzilishi mumkin.

Ishchi guruh (komissiya) tarkibiga ishlab chiquvchining tegishli bo'linmalarining, tegishli tarmoqlar holati va rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan vazirliklarning, davlat qo'mitalarining yoki idoralarning, boshqa manfaatdor davlat organlarining, ilmiy va boshqa tashkilotlarning vakillari, shuningdek fuqarolar kiritilishi mumkin. Bunda nodavlat tashkilotlar vakillari, shuningdek fuqarolar o'z roziligi bilan ishchi guruh (komissiya) tarkibiga kiritiladi.

Ishchi guruh (komissiya) a'zolari normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan tegishli bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak.

Ishlab chiquvchi ishchi guruhning (komissiyaning) faoliyatini ta'minlash uchun davlat organlaridan va o'zga tashkilotlardan normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan materiallarni, statistika ma'lumotlarini va boshqa ma'lumotlarni olishga, loyiha yuzasidan ilmiy va boshqa tashkilotlarning, olimlar va mutaxassislarning maslahatlari hamda tavsiyalarini, shuningdek ekspertlar xulosalarini olishga haqlidir.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organ, zarur hollarda, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashni davlat organlariga, ilmiy va boshqa tashkilotlarga, ayrim fuqarolarga belgilangan tartibda o'z vakolatlari doirasida topshirishga yoki ularga shartnoma asosida buyurtma berishga haqlidir.